

TILSHUNOSLIKDA TA'LIMYIY DISKURSNING TADQIQI VA AHAMIYATI**Shaxnoza Bobojonova Yo'ldosh qizi****Toshkent tibbiyot akademiyasi
Pedagogika, psixologiya va tillar****E-mail: shakhnoza.bobojonova@gmail.com****tel: 99 840 93 95****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7825071>**

O'qitish hamda muloqotda qo'llaniladigan ta'limiy diskurs - bu pedagogik vaziyat yoki pedagogik maqsad bilan boshqariladi. Ta'limiy nutqning maqsadlari, usullari va vositalari, qaysi muassasaga mansubligidan qat'i nazar, o'qitish jarayonida o'quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga mos keladi. Ushbu maqola ta'limiy diskurs haqida asosiy tushunchani beradi va uning tilshunoslikda tahlili haqida so'z olib boradi.

Keywords: ta'limiy diskurs, ta'limiy nutq, muloqot, o'g'zaki nutq, ma'ruza va darslikdagi nutq tahlili, pedagogik nutq, kognitiv tilshunoslik.

Dunyo tilshunosligida diskurs muammosi bilan bog'liq til faktlarini o'rganish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, bugungi kunda diskurs va uni o'rganish ko'pchilik tilshunoslarning diqqatini tortmoqda. Diskurs bilan bog'liq keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Ta'limiy diskursning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish, terminlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish, millat hayoti, dunyoqarashi va adabiyotidagi o'rnini belgilashda yordam beradi. Ikki til imkoniyatlarini o'rganish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima jarayonida yuzaga keladigan fikr ifodasi, uning shakliyl tuzilishi, ichki nutqning imkoniyatlarini ifodalash va aniq strukturaviy xossalari yoritib berishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan ushbu yo'nalish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish va mavjud muammolarga yechim topish dolzarb hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida XXI asrda shakllanayotgan diskursiv lingvistik yo'nalishlarning asosiy vazifasi - inson nutqini tahlil qilish, diskurs va uning leksik-frazeologik tarkibi, pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Ta'limiy diskursda o'qituvchi va o'quvchi fikriy mundariyasi, uning nutqiy vaziyat bilan bog'liqligi, kognitiv, pragmatik va sotsiopragmatik xoslanishi real ko'rinishda namoyon bo'lishini asoslash zaruratining mavjudligi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Ta'limiy diskursning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri ma'ruzalar sanaladi. Ma'ruza - o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan ta'limiy nutq bo'lib, unda nafaqat o'qituvchidan nutqiy tayyorgarlik talab etiladi. Balki o'rganuvchilar ham eshitish va ma'lumotni ong ostida qabul qilib qayta ishlashi va eslab qolishi talab etiladi. Ma'ruzalar tegishli fan yoki ilm yo'nalishining xarakter xususiyatidan kelib chiqib ilmiy kontentga ega bo'ladi va aksariyat hollarda lingvomadaniy leksika ishlatilmasligi bilan dolzarbdir. Ta'limiy diskurs muayyan kommunikativ vaziyat bilan belgilanadigan xususiyatlarga ega bo'ladi va shu sababli mavhum tushunchadan ustun turadi. U o'qituvchi va talabalarning kommunikativ o'zaro ta'sirga yo'naltirilgan semiotik (ya'ni lingvistik va xulq-atvor) strategiyalari bilan belgilanadi, bunda muloqot doimo suhbat mavzusiga mos keladigan yoki unga hamroh bo'lgan belgilar va ma'nolarning almashinuvi sifatida belgilanadi. Darslikdagi pedagogik nutqni ta'lim muhitiga kiritilgan dunyoni tasvirlash va dunyoni bilishning maxsus institutsional (rasmiy pedagogik) usuli sifatida ta'riflash mumkin, bu yerda o'qitishning o'ziga xos kommunikativ maqsadlari va ijtimoiy rollari atrofida talqin etiladi.

Ta'limiy diskursning xususiyatlarini aniqlash uchun o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan manba matnining maqsadi, ishtirokchilari, xronotoposlari va turi / janri, nutqning og'zaki qismi hisobga olinishi kerak. Agar nutq vaziyatga singdirilgan matn bo'lsa («hayotga singib ketgan nutq»), ta'limiy nutq ta'lim jarayoni va uning ichidagi o'zaro ta'sir nutqidir. Bu nutq turini o'rganish va dunyoni bilish jarayonida dunyoni og'zaki taqdim etish usuli va yangi jamiyat a'zolarining sotsializatsiyasiga qaratilgan nutq faoliyati sifatida aniqlash mumkin.

O'qitish va muloqotda qo'llaniladigan ta'limiy nutq - bu pedagogik vaziyat yoki pedagogik maqsad bilan boshqariladi. Ta'limiy nutqning maqsadlari, usullari va vositalari, qaysi muassasaga (ta'lim muassasasi) mansubligidan qat'i nazar, o'qitish jarayonida o'quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga mos keladi.

Darslikning ta'limiy nutqi semiotik, informatsion, madaniy va antropologik ma'lumotlarni taqdim etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'qitish samaradorligi tashqi (ijtimoiy va ta'lim muhiti), shuningdek, tegishli ichki omillar (talabalar va o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlari va motivlari) bilan belgilanadi. Darslik pedagogik nutqining tashqi omillari til tizimi, tipografik madaniyat, ishtirokchilarning shaxsiy fazilatlari va muloqot muhitini o'z ichiga oladi. Pedagogik nutqni o'z roli va holati bo'yicha har xil ishtirokchilarni o'z ichiga olgan o'zaro ta'sirning murakkab tizimi sifatida tushunish uni tahlil qilishning yaxlit kompleks vositalarini joriy etish va qo'llashni taklif qiladi.

Nutq dunyoni og'zaki ravishda taqdim etish usuli bo'lganligi sababli, uning tabiati lingvistik (ramziy) bo'lib, tildan kontekstual foydalanishni belgilaydi. Bunda mohiyatni bilishning birinchi darajasi va uni tahlil qilishning samarali vositasi tilni tizim sifatida o'rganuvchi tilshunoslik bo'lishi kerak. Til o'zining belgi-ramziy xususiyati bilan ajralib turadi, shuning uchun tilshunoslikni semiotikaning bir bo'limi, belgilarni o'rganadigan fan sifatida qarash mumkin.

Muloqot turli xil nutq turlarida taqdim etiladi. Masalan: matematika, fizika va kimyo. Darslik nutqining lingvo-stilistik tahlili muloqot registrini (belgilar almashinuvi) va nutq turining janr afzalliklarini (semiotik oqimlar) aniqlash va tanlash va uning birliklari bo'yicha kommunikativ funksiyalarni aniqlash imkonini beradi. Darslikdagi ta'limiy nutqning sotsial-lingvistik tahlili muloqotning umumiy ijtimoiy konteksti va muloqot ishtirokchilarining muayyan ijtimoiy guruh vakillari sifatidagi masalalariga qaratilgan.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan til bilish va dunyoni strukturalashtirish vositasidir. Ta'limiy nutqni bilish vositasi sifatida kognitiv tilshunoslik muallif, nashr yoki darslik tomonidan taklif qilingan dunyo haqida gapirish texnikasi (pedagogik nutq) qanchalik samarali ekanligiga javob beradi. O'quv dasturini o'zlashtirish orqali o'quvchi tushunchani yoki o'z dunyo tasvirining bir parchasini til yordamida shakllantiradi. Demak, kognitiv tushuncha darslikdagi ta'limiy nutq tahlilining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan ta'limiy nutq tushunchalar, ramkalar, stsensariylar, aqliy sxemalar, kognitiv tiplar, boshqacha aytganda, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirning turli xil psixik modellari orqali o'rganiladigan semiotik obyekt sifatida qaraladi. Bunda darslik vositachi sifatida ishtirok etadi. Bu psixik modellar o'qituvchi, darslik muallifi va o'quvchining qadriyatlari va dunyoqarashini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, kognitiv tilshunoslik ta'limiy nutqni tahlil qilish vositasi sifatida etnik guruhning kommunikativ xususiyatlarini va odob va til xatti-harakatlarining madaniy kodlangan modellari va

jamiyatning madaniy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi, va tushunchalar shaklida taqdim etadi va lingvomadaniy jamiyatning an'anaviy matnlarini me'yorlari va naqshlarini belgilaydi.

Xulosa qilish uchun shuni ta'kidlash kerakki, lingvistika, semiologiya va kognitiv lingvistika yordamida olib boriladigan ta'limiy nutq tahlili – tilshunoslikda yangi yondashuv bo'lib, u yaqinda pedagogikaning pedagogik semiologiya deb ataladigan alohida bo'limiga ajratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008
2. Stubbs M. Discourse Analysis: The Sociolinguistic Analysis of Natural Language. Oxford Blackwell, 1983
3. Raupova L.R. Dialogik diskursdagi nopredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri...diss. – Toshkent, 2012.
4. Комина Н.А. Организационный дискурс в учебной ситуации: Семантический и прагматический аспекты. Доктор филологических наук. Автореферат.-Краснодар-2004
5. Bobojonova Sh.Y. Diskurs, ta'limiy diskurs va nutqning tarkibiy qismlari va ularning xususiyatlari// Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi-11/4-2022 ISSN 2091-573 X <http://mamun.uz/uz/page/56>
6. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fanlari d-ri ... diss. – Toshkent, 2001.
7. Bobojonova Sh.Y. Ta'limiy diskurs va unga aloqador hodisalar// Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti. Ilmiy axborotlari. Научный Вестник. Scientific Bulletin. Ilmiy-nazariy jurnal 11/2022
8. Bobojonova Sh.Y. Metafora muloqot vositasi unsuri sifatida// Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti. Ilmiy axborotlari. Научный Вестник. Scientific Bulletin. Ilmiy-nazariy jurnal 11/2022
9. Gulyamova Sh. Monologik diskursdagi qo'shma gaplarning sotsiopragmatik talqini (o'zbek va ingliz tillaridagi materiallar asosida) : filol. f.f. d-ri...diss. – Toshkent, 2022.
10. Saidxonov M. Dialogik nutqning kommunikativ tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. 2004. №2